Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319649

materiallar to‘plami

UDK 629.854:044

HARAKATLANUVCHI TARKIBNING YUK TASHISH HAJMINING ISHINI TASHKIL QILISH USULLARI

Andijon mashinasozlik instituti, “Transport vositalari muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi Temirov Sherali Anvarjonovich
assistent Qo‘chqorov Isroiljon Tavakkal o‘g‘li

Annotatsiya: Harakatlanuvchi tarkib ish unumi uning ma’lum vaqt ichida bajargan transport ishi (t. km) va tashilgan yuk hajmi (tonna) bilan o‘lchanadi. Tashilgan yuk hajmi transport ishi unumdorligi to‘g‘risida to‘la tasavvur bera olmaydi. Chunki ma’lum vaqtda tashiladigan yukning hajmi tashish masofasiga bog‘liqdir. Transport ishini yuk tashish hajmi va masofasini hisobga olgan holda tonna kilometrlarda o‘lchanadigan ish unumdorligi orqali ifodalash maqsadga muvofiqdir.

Kalit so‘zlar: *Intelektual transport, Avtomobil, Yuk avtomobillari, Yo‘l, Vaqtincha saqlash joylari, A darajasi, B darajasi, D darajasi.*

УДК 629.854:044

МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ РАБОТЫ ГРУЗОВОГО ОБЪЕМА ПОДВИЖНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ

Андижанский машиностроительный институт, Кафедра «Транспортное машиностроение» старший преподаватель Темирова Шерали Анваржонович помощник Кочкарова сын Исраилона Таваккала

Аннотация: Производительность подвижного состава измеряется выполненной им за определенное время транспортной работой (т.км) и объемом перевезенного груза (тонны). Объем перевезенных грузов не может дать полного представления об эффективности работы транспорта. Потому что размер груза, перевозимого в определенное время, зависит от дальности перевозки. Работу транспорта уместно выражать через производительность труда, измеряемую в тонно-километрах, с учетом объема и дальности грузоперевозок.

Ключевые слова: *Интеллектуальный транспорт, Автомобиль, Трубопроводный транспорт, Дорога, Пункты временного хранения, Места временного хранения, Уровень А, Уровень Б, Уровень Д.*

UDC 629.854:044

METHODS OF ORGANIZING THE WORK OF THE CARGO VOLUME OF MOBILE COMPONENTS

Andijan Institute of Mechanical Engineering, "Transport engineering" department senior teacher Temirov Sherali Anvarjonovich
assistant Kochkarov Israiljon Tavakkal's son

Abstract: Rolling stock productivity is measured by the transport work performed by it in a certain time (t. km) and the volume of transported cargo (tons). The volume of

Published: 10.11.2023

Cite this article: Temirov Sherali Anvarjonovich, Qo‘chqorov Isroiljon Tavakkal o‘g‘li (2023). Harakatlanuvchi tarkibning yuk tashish hajmining ishini tashkil qilish usullari. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319649

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

transported cargo cannot give a full picture of the productivity of transport work. Because the size of the cargo transported at a certain time depends on the transportation distance. It is appropriate to express the work of transport through work productivity measured in ton-kilometers, taking into account the volume and distance of cargo transportation.

Key words: *Intellectual transportation, Rail transportation, Trucks, Pipeline transportation, Temporary storage facilities, Level A, Level B, Level D.*

Kirish. Avtomobil transportida yuk tashish hajmining o‘sishi va harakat xavfsizligining ta’minlanishi avtomobil yo‘llarining holatiga bog‘liq bo‘ladi. Avtomobil notekis yo‘lda harakatlanganda harakat tezligi pasayadi, yoqilg‘i sarfi, yuk tashish narxi va yo‘l harakati qoidalariga rioya qilmaslik holatlari soni ortadi. Bundan tashqari, avtomobilning texnik nosozligi ortishi natijasida ta’mirlash xarajatlari ortadi. Hozirgi kunda xalq xo‘jaligiga avtomobillarning yuqori tezlikda turli ob-havo sharoitlarida ham qatnovini ta’minlaydigan yaxshi avtomobil yo‘llari kerak [1].

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda va ular samaradorligini oshirish yuzasidan keng miqyosda chora-tadbirlar belgilanmoqda. Islohotlarning aholini ijtimoiy muhofaza qilgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani barqarorlikni, fuqarolar totuvligini yanada mustahkamlash imkonini yaratdi. Bu xalq xo‘jaligining turli sohalarida, jumladan, umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti tarmog‘ida ham o‘z ifodasini topmoqdam(1-jadval). Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tezkorlik bilan olib borilmoqda. Zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar sonini kamaytirish, shartnomaviy tariflarga o‘tkazilgan barcha tashish turlari bo‘yicha rentabellikni ta’minlash, xodimlarini ijtimoiy himoyalash masalalari asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda [2].

1-jadval


Avtomobil yo‘llarining sinflarga bo‘linishi

T/r	Avlomobil yo'lining xalq xo'jaligi bo‘yicha sinflarga bo‘linishi	Harakat jadalligi, avto/soat	Toi-fasi	Harakat tezligi, km/soat
1.	Umumdavlat miqyosidagi avtomobil yo‘llari (asosiy magistral)	7000 dan ortiq	I	150
2.	Respublika miqyosidagi yo‘llar	3000÷7000	II	120
3.	Viloyat miqyosidagi avtomobil yo‘llari	1000÷3000	III	100
4.	Tuman miqyosidagi avtomobil yo‘llari	200÷1000	IV	80
5.	Mahalliy yo‘llar	200 dan kichik	V	60

Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usuli.

Mayatnik yo‘nalishda yuk tashish bir trassada joylash gan yuk punktlari orasida bajariladi. Mayatnik yo‘nalishlar uch turga bo‘linadi.

1. Bir tomonga yukli, qaytishda yuksiz yuradigan yo‘nalish
2. Bir tomonga yuk tashiladigan va qaytishda o‘tilgan masofaning bir qismigacha yukli yuriladigan yo‘nalish.
3. Ikkala yo‘nalishda ham yuk tashiladigan yo‘nalish. Halqasimon yo‘nalishlar yuk tashishda harakatlanuvchi tarkibning yuksiz yurish masofasini kamaytirish maqsadida tashkil qilinadi [3].




2. rasm. Ikkala tomonga ham yukli yurish yo‘nalishi tasviri:

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Harakatlanuvchi tarkib tipini tanlash yo‘nalishda ishlash uchun bir necha xil avtotransport vositalaridan eng maqsadga muvofig‘ini aniqlash demakdir. Harakatlanuvchi tarkib quyidagi xususiyatlarga qarab tanlanadi.

– tashilayotgan yukning xususiyati;
– yo‘l va iqlim sharoitlariga;
– yuk ortish-tushirish mexanizmining turi va quvvati;
– yuklarni tashish tannarxi;
– harakatlanuvchi tarkiblar ish unumi.

Ba’zi hollarda harakatlanuvchi tarkib turi, tanlanayotgan harakatlanuvchi tarkiblar unumdorliklari bir xil bo‘ladigan masofaga qarab ham tanlanadi.



3. rasm. Harakatlanuvchi tarkibni tanlash grafigi: 1-bortli avtomobil; 2-ag‘darma avtomobil

Xulosa. Ba’zi hollarda harakatlanuvchi tarkib turi, tanlanayotgan harakatlanuvchi tarkiblar unumdorliklari bir xil bo‘ladigan masofaga qarab ham tanlanadi. (l_{um}) Masalan, bortli va avtomobil-tyagach tanlashda, agarda ($l_{ut} < l_{qu}$) bo‘lsa, bortli avtomobil agarda ($l_{ut} < l_{qu}$) bo‘lsa, ag‘darma avtomobilni, agarda ($l_{ut} < l_{qu}$) bo‘lsa, bortli avtomobilni tanlash kerak. Tashilgan yuk hajmi transport ishi unumdorligi to‘g‘- risida to‘la tasavvur bera olmaydi. Chunki ma’lum vaqtda tashiladigan yukning hajmi tashish masofasiga bog‘liqdir. Transport ishini yuk tashish hajmi va masofasini hisobga olgan holda tonna kilometrlarda o‘lchanadigan ish unumdorligi orqali ifodalash maqsadga muvofiqdir [6-7].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliyev A., Shukurjon B. ZAMONAVIY TRANSPORT LOGISTIKA MARKAZ FAOLIYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 575-580.
2. Sh.A. Temirov., «Enhanced mechanical transmission drives agricultural machinery» “International Journal of Innavations in Engineering Resarsch and Technology – ISTC – 2K20” www.ijert.org. Vol. 29,. 9s, (2020), pp. 5870-5875.
3. Temirov Sherali., «ZANJIRLI UZATMALAR» “Новости образования: исследование в XXI веке” 2 том, № 14, 2023/10/10, pp. 117-131.
4. Xalilbek o'g'li X. E. ICHKI YONUV DVIGATEL DETALLARINI QURUM BOSISHINI TEKSHIRISH //World scientific research journal. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 110-115.
5. Temirov Sherali., « AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA MAVJUD YORDAMCHI USTAXONALAR FAOLIYATINI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH » “World scientific research journal” Vol. 18, № 1, 2023/8/25, pp. 136-141.
6. Темиров Ш. А. “Наукови здобутки у виришенни актуальних проблем виробництва та переробки сировини, стандартизаци и безпеки продовольства” Украини 2020 йил 31 – март, С. 236-239.
7. Kuchkorov, Isroiljon ANALYSIS OF AVAILABLE PARKING SPACES IN FOREIGN COUNTRIES OF TRANSIT ROADS FOR CARGO TRANSPORTATION BY INTERNATIONAL VEHICLES // ORIENSS. 2022. №10.